

Xalq uchun chekilgan zahmat – rahmat nishoni

2021-yil 7-may kuni “Suv xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish” fakulteti dekani R.Xakimov, “Iqtisodiyot” kafedrasini mudiri B.Sultonov, “Menejment” kafedrasini dotsenti B.Shafkarov hamda Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari J.Turdiyevlar hamrohligida Toshkent shahar M.Ulug‘bek tumani “Shahrisabz” M.F.Y. ga tashrif buyurishib, “9-may Xotira va qadrlash kuni” bayrami munosabati bilan mahallada



istiqomat qilayotgan Ikkinchi jahon urushi yillarida g‘alabaga o‘z munosib hissasini qo‘shgan front ortida xizmat qilgan bir guruh mehnat faxriylari Axmedov G‘ulom Inomovich, Kulikova Aleksandra Fyodorovna, Salixbaeva Muzas Raximovna, Gulyamov Xalil Sadikovich hamda Dobrinina Olga Yurevnalarning uylariga mahalla raisi J.Koshetova hamrohligida borilib, Institut rahbariyatining sovg‘a va salomlari yetkazildi, ularning ko‘nglini ko‘tarib, holidan xabar olindi.



“SXTE va B” fakulteti dekani o‘rinbosari J.Turdiyev axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati